

=====

**GLOBALLASHUV DAVRIDA MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI
ASRASH MUAMMOSI**

Xolbozorova Maftuna Jumaboy qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 2-kurs talabasi.

xolbozrovamaftuna12333@gmail.com

O'zligini yo'qotgan millat kelajagini boy beradi.

(Abdulla Avloniy)

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.01.2026

Revised: 11.01.2026

Accepted: 12.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Globallashuv,
madaniy meros,
ma'naviy qadriyat,
ommaviy madaniyat,
milliy o'zlik,
mafkuraviy immunitet,
ma'naviy tahdidlar*

Mazkur maqolada globallashuv jarayonlarining milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda dunyoda yuz berayotgan integratsiya jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan birga, "ommaviy madaniyat" xavfi va milliy o'zlikning yuvilib ketish muammolari ko'ib chiqilgan. Maqolada yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, boy madaniy merosimizni kelajak avlodga bezavol yetkazish va milliy qadriyatlarni zamonaviy tamoyillar bilan uyg'unlashtirish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan

Globallashuv o'zi nima?

Globallashuv- bu butun dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir. Globallashuv tizimli xususiyatga ega ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi obyektiv jarayondir. Globallashuv natijasida dunyo o'zining barcha subyektlari bilan bog'lanib, tobe bo'lib bormoqda. Globallashuvning kelib chiqishi haqidagi qarashlar doimo munozarali bo'lib kelgan. Tarixchilar bu jarayonni kapitalizmning rivojlanish bosqichlaridan biri deb hisoblaydilar. Madaniyatshunoslar globallashuvning namoyon bo'lishini madaniyatning g'arbiylashuvi. Jumladan Amerika iqtisodiy ekspansiyasi bilan bog'laydi. Siyosatshunoslar demokratik tashkilotlarning keng tarqalishiga urg'u berishadi.

Globallashuvning hayot sohalariga ta'siri;Iqtisodiyotga ta'siri: Siyosatda globallashuv milliy davlatlarning zaiflashuvi bo'lib, ularning suverenitetini o'zgartirish va kamaytirishga yordam beradi. Suverenitet (fransuzcha- oliy hokimyat) hokimyatning ustinligi va

mustaqilligi. XXI-asrda globalasuv bilan birgalikda mintaqaviylashuv jarayoni ham yuz bermoqda, ya'ni mintaqa xalqaro munosabatlar tizmining holatiga omil sifatida, global va mintaqaviy munosabatlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir kuchayib bormoqda, jahon siyosatining tarkibiy qismlari o'zgarmoqda, mintaqaning davlatning ichki ishlariga ta'siri kuchaymoqda. Mintaqaviylashtirishning yaqqol misoli "Yevropa Ittifoqi" dir.

Globalashuvning madaniyatga ta'siri: Madaniyat globalashuv dunyoning turli mamlakatlari o'rtasida biznes va iste'mol madaniyatining yaqinlashishi va xalqaro aloqaning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bu bir tomondan, milliy madaniyatning ayrim turlarining butun dunyoda ommalashishiga olib keladi. Boshqa tomondan, mashxur xalqaro madaniy hodisalar milliy hodisalarni siqib chiqarishi yoki ularning xalqaro miqyosga aylantirish mumkin. Ko'pchilik buni milliy madaniy qadriyatlarni yo'qotish deb biladi va milliy madaniyatni tiklash uchun kurashmoqda. Aslini olganda ham bu milliy qadriyatlarni yo'qotishdir. Madaniy globalashuvda internetning keng tarqalgani katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari xalqaro turizm yil sayin kengayib bormoqda.

Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globalashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan «ommaviy madaniyat» niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda:

ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;

– yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;

– yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Shundagina biz yoshlarimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz.

"Ommaviy madaniyat" milliy madaniyatlarning kushandasi bo'lib, u madaniy xilma-xillikni xushlamaydi, uning asl maqsadi – bu olamni bir xil rangda ko'rish. Ommaviy madaniyat ssenariysining asosiy "muallifi" sanalgan AQSHda madaniyatlar uyg'unligi orqali millatlar o'rtasidagi tafovut "devori"ni yiqitish borasida to'plangan boy tajriba shundan dalolat beradi. Garchi ommaviy madaniyat okean ortida yagona davlat shakllanishida qo'l kelgan bo'lsada, bugunga kelib uning G'arbda yuz berayotgan axloqiy tanazzulning muqaddimasi ekani ham ayonlashdi. So'nggi bir necha o'n yilliklar davomida

“ommaviy madaniyat” o’sha jamiyatlarni sun’iy, soxta ideallar bilan chalg’itibgina qolmay, odamzot uchun muqaddas bo’lgan tabiiy juftlikni ham inkor etdi, g’ayriinsoniy axloq va munosabatlarni qonuniylashtirdi va buni, demokratiyaning oliy namunasi deya ko’z-ko’z qildi.

Ommaviy madaniyatning shiddat bilan rivojlanishida tijorat qoidalari ham kuchli ta’sir o’tkazmoqda. Har qanday zamon va makonda barcha narsalardan foyda ko’rishga tayyor dastyorlar topilishi uzoqni ko’zlab zimdan ish ko’ruvchi ommaviy madaniyatchilarning mushkulini oson qiladi, ishini jadallashtiradi. Bunday mol-dunyoga sig’inuvchi dastyorlar faqat bugunni, yana ham aniqrog’i hozirni ko’radi va tan oladi.

Shuning uchun, o’sib kelayotgan avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlarga, asl madaniyat durdonalariga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda ommaviy madaniyatga xos ayrim ko’rinishlarga tanqidiy munosabatni, aksilmadaniyatga, turli buzg’unchi g’oyalar va axborotlarga nisbatan g’oyaviy immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat- bu bir xalqning urf-odatlarini, an’analarini, ilmlarini va san’atlarini, milatning tarixiy merosini tashkil qiluvchi bilimlar, til boyligi, adabiyoti, din va e’tiqodlar, sanoat, me’morchilik va shaharsozlik uslubi, xalq og’zaki ijodi, marosim va udumlar, tarbiya va hayot tarzi, musiqiy va ta’sviriy san’at, fe’l atvor, kiyinish va ovqatlanish madaniyati, hamda hayotning barcha ko’rinishlarining majmuidir. Rus olimi Yu. M. Lotmanning fikricha madaniyatda qadriyatlar til orqali shakllanadi: Madaniyatning yadro qismini qadriyatlar tashkil qiladi “. Bugungi kunda globallashtirish, texnologik taraqqiyot va madaniyatlararo aloqalarning intensivlashuvi fonidan madaniy qadriyatlarining roli va funksiyasi yanada murakkablashmoqda. Shu sababli madaniy qadriyatlarining ilmiy asosda o’rganilishi dolzarb ilmiy masala sifatida qaralmoqda. Madaniy o’ziga xoslikni asrash, uni avlotdan avlodga yetkazish til orqali amalga oshiriladi. Lingvokulturologiya- aynan shu jarayonni ilmiy asosda o’rganuvchi fan sifatida qadriyatlarining til orqali uzatilish mexanizmlarini tahlil qiladigan, til va madaniyat o’rtasidagi uzviy bog’liqliklarni o’rganadigan fan sohasidir. Til nafaqat aloqa vositasi, balki qadriyatlar ifodasidir. Madaniy qadriyatlarining strukturaviy xususiyatlari, ya’ni asosiy vazifalari mavjud va ular bir biridan farqlanadi: Ma’naviy-me’yoriy funktsiya: qadriyatlar axloqiy mezonlarini belgilaydi ; ijtimoiy hatti harakatni tartibga soladi. Identifikatsiya funktsiyasi: shaxs va jamiyatning o’zini anglash, milliy sivilizatsion identitet shakllanishida muhim o’rin tutadi. Integratsion funktsiya :turli ijtimoiy guruhlar va avlodlar orasida madaniy uzviylikni ta’minlaydi. Motivatsion funktsiya:shaxs faoliyatiga ichki rag’bat uyg’otadi, hayotiy idealar va maqsadlar bilan bog’laydi. Transmissiv funktsiya:qadriyatlar madaniy meros sifatida avlodlardan avlodga o’tkaziladi.

Madaniy qadriyatlar toifalari:

1. Axloqiy qadriyat.
2. Estetik qadriyat.

3. Diniy qadriyatlar.
4. Milliy qadriyatlar.
5. Umuminsoniy qadriyatlar.

Qadriyatlar jamiyat hayotining tamal toshi hisoblanadi.

Ma'naviy qadriyatlar- inson ma'naviyati va axloqiy qiyofasiga daxldor bo'lib, jamiyat a'zolarini tarbiyalashga ularning ma'naviy barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladigan qadriyatlar tizmini ifodalovchi tushuncha. Ma'naviy qadriyatlarni anglash kishining o'z millati, yurti, eliga tegishli qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qiladi, o'ziga ishonch va xurmatni mustahkamlaydi, Vatan iqboliga katta umid bilan qarashgaundaydi. Muayyan millat ma'naviy qadriyatlarini qanchalik asrab- avaylasa, uning tarqqiyotida ma'naviy va moddiy omillar uyg'unligi shunchalik mustahkam va barqaror bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan madaniy, ma'rifiy, axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy va hokazo. Ma'naviy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning irodasini mustahkam qiladigan unga kuch bag'ishlaydigan asosiy omillardan biridir.

Globalashuvning madaniy va ma'naviy qadriyatlarga salbiy ta'siri:

1. Madaniy assimlyatsiya: Katta va kuchli madaniyatlar (ayniqsa G'arbniki) kichik millatlarning madaniyatini siqib chiqaradi.

2. Til va madaniyatning yo'qolishi: Global tilda (ingiliz tilida) so'zlashish natijasida milliy tillar qadirsizlanmoqda. Masalana ayrim o'zbek yoshlariningingilizcha aralash so'zlashuvi, milliy iboralarning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda.

3. Ommaviy madaniyatning bosimi: Reklama, kino, musiqa, ijtimoiy tarmoqlarda chet el madaniyatlari ustunlik qilmoqda-bu yoshlarni milliy ruhdan uzoqlashtiradi.

4. Ma'naviy bo'shliq va axloqiy inqiroz: Yangi avlodlar orasida iste'molchilik, individualizm, moddiyatparastlik kuchayib, Vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, iymon kabi qadriyatlar zaiflashmoqda.

Asosiy muammolar:

Madaniy me'rosni asrash bo'yicha yoshlar faolligining pastligi.

Qishloq joylarda qadriyatlar saqlanayotgan bo'lsada, shahar hayoti ulardan uzoqlashmoqda.

Media va internetda milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi kontent yetarli emas.

Ota-onalar va o'qituvchilar orasida ma'naviy tarbiyaning zamonaviy uslublari sust rivojlangan.

Bolalar tarbiyasiga tabora e'tiborsizlik va ota- onaning ham farzandning ham asosiy vaqti ijtimoiy tarmoqda o'tishi bolalarni yoshligidan telefon, ijtimoiy tarmoqlar bilan ovutish , har bir xonadonda kichik kutubxonalar yo'qligi, bolalarga yoshligidan kitobga mexr uyg'otmasligidir.

Madaniy va ma'naviy qadriyatlarni asrash yo'llari:

1. Ta'lim tizmi orqali: Maktab va oliygohlarda milliy qadriyatlarni o'rgatuvchi fanlar tarbiyaviy tadbirlarni kuchaytirish. O'quv dasturlariga milliy tarix, adabiyot, san'at, axloqiy tarbiya mavzularini chuqur kiritish. "Ma'naviyat soati" "Vatanparvarlik darsi", "Milliy qadriyatlar haftaligi" kabi loyhalarni yanada kengaytirish. Toshkent shahrida 53% maktablar rus maktablariga aylangan. Bu bizning milliy fojiamizdir. Milliy maktablarni ko'paytirish va boshqa tilga iqtisoslashgan maktablarni kamaytirishimiz kerak.

2. Oila muhitida: Bolalarga kichik yoshdan milliy qadriyat, mehr-oqibat, halollik, ornomus tushunchalarini singdirish. Ota - onaning shaxsiy namunasi - ma'naviy tarbiyaning eng muhim omili.

3. Axborot makonida:

Internetda milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi videolar, filmlar, bloglar yaratish.

O'zbek madaniyatiga oid YouTube, Instagram, TikTok kontentlarini ko'paytirish.

4. Madaniy siyosat orqali:

Davlat tomonidan milliy merosni asrash dasturlari (muzeylar, teatrlar, xalq amaliy san'ati markazlari)ni qo'llab-quvvatlash "Yoshlar va ma'naviyat" dasturi, "O'zbekiston madaniy merosi jahon e'tirofida" loyihasi shular jumlasidan.

5. Din va ma'rifat uyg'unligi:

Islom dini o'zbek xalqining ma'naviyatida muhim o'rin tutadi. Dinda odob, ilm, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, halollik targ'ib qilinadi. Shu qadriyatlarni zamonaviy tarbiya tizimiga uyg'unlashtirish kerak.

6. Madaniy diplomatiya:

O'zbek madaniyatini xorijda targ'ib qilish: san'at ko'rgazmalari, festival, konsertlar, xalqaro ilmiy anjumanlar orqali milliy qadriyatlar tanitiladi.

O'zbekistonda bu boradagi amaliy ishlar.

1. "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi – aholining ma'naviy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan dasturlarni olib boradi.

2. UNESCO bilan hamkorlikdagi "O'zbekiston madaniy merosi" loyihasi – xalq amaliy san'at, arxitektura, tarixiy yodgorliklarni jahon miqyosida targ'ib etadi.

3. "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" dasturlari – yoshlarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.

4. Maktab va oliy ta'limda "Ma'naviyat asoslari", "Milliy istiqloq g'oyasi" fanlari – bu fanlar milliy g'urur, vatanparvarlik, halollik kabi qadriyatlarni shakllantiradi.

5. Ommaviy madaniyatga qarshi kurashish tashabbuslari – zararli axborot, ma'nosiz ko'ngilochar kontentlarga qarshi ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Ilmiy qarashlar va nazariy yondashuvlar:

"Glocalization" nazariyasi (global + local):

Har bir millat global madaniyatni butunlay rad etmay, o'ziga mos shaklda qabul qilishi kerak. Masalan, o'zbek to'ylarini zamonaviy lekin milliy ruhda o'tkazish.

Kultural identitet nazariyasi:

Inson global muhitda yashasa ham, o‘z milliy madaniy identitetini anglash orqali ichki muvozanatni saqlaydi.

Madaniy pluralizm:

Har bir xalq madaniyatining teng huquqli mavjudligi – bu insoniyatning boyligi. Turfa madaniyatlar o‘zaro hurmatda bo‘lishi kerak.

Globallashuv – to‘xtatib bo‘lmaydigan tarixiy jarayon. U bilan kurash emas, muvozanatli uyg‘unlashuv kerak. Ya‘ni, global dunyo imkoniyatlaridan foydalanib, milliy qadriyatlarni saqlash va boyitish – eng to‘g‘ri yo‘l. O‘zbekiston uchun bu, avvalo: Yoshlar ongida milliy g‘ururni mustahkamlash; Ommaviy madaniyat bosimiga qarshi ma‘naviy immunitet yaratish; Diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg‘unligini ta‘minlash; Har bir fuqaroning “milliy meros – mening boyligim” degan tushunchasini shakllantirishdan iborat. Globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining tabiiy bosqichi bo‘lib, u madaniy almashinuv, texnologik yangilanish va ochiqlikni ta‘minlaydi. Biroq bu jarayon milliy o‘zlik va ma‘naviy qadriyatlarga nisbatan yangi sinovlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun har bir jamiyat, xususan O‘zbekiston, globallashuvni milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda boshqarishi zarur.

Madaniy va ma‘naviy qadriyatlarni asrash — bu faqat o‘tgan merosni saqlash emas, balki uni zamon ruhiga mos ravishda boyitish, yosh avlod ongiga singdirishdir. Shundagina xalq o‘z tarixiy ildiziga sodiq, lekin zamonaviy dunyo bilan hamnafas millat sifatida yashay oladi. Globallashuv insoniyatni birlashtiruvchi, lekin ayrim millatlarning o‘ziga xosligini so‘ndiruvchi kuchdir. Shu bois har bir fuqaro, ayniqsa yosh avlod, milliy g‘urur va ma‘naviyatni o‘z qalbida saqlashi kerak. Milliy til, urf-odat, din, san‘at va axloqiy qadriyatlar bizni kimligimizni belgilaydi.

Madaniy merosni asrash – bu o‘tmishni emas, balki kelajakni himoya qilishdir. Chunki o‘zining madaniy ildizini yo‘qotgan millat, o‘z yo‘lini yo‘qotadi. Shuning uchun globallashuv davrida ma‘naviyatni mustahkamlash eng muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Globallashuv sharoitida madaniy va ma‘naviy qadriyatlarni asrash jamiyat barqarorligi, milliy o‘zlik va ma‘naviy yuksalishning kafolatidir. Milliy madaniyatni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, yoshlar ongida vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish orqali globallashuvning salbiy ta‘sirlariga bardosh berish mumkin. Bugungi kunda dunyo tez o‘zgarimoqda, chegara va masofa tushunchasi yo‘qolmoqda. Ammo insonni inson qiladigan narsa — uning ma‘naviyati, milliy ruhi, ajdodlardan qolgan qadriyatidir. Agar biz o‘z tilimizni, urf-odatimizni, e‘tiqod va vijdonimizni asrasak, demak biz o‘zligimizni asrayapmiz.

Globallashuv bizni dunyoga ochadi, ammo o‘z ildizimizni unutmasakgina, biz haqiqiy taraqqiyot sari yura olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Globallashuv>
2. <https://ii.au.uz/oz/news/2182>
3. <https://oliymahad.uz/27592>
4. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13099_1_37B9C134AD74B2A576131A38A246FA02BA2E6F5B.pdf
5. <https://www.scribd.com/document/880977476/Madaniy-Qadriyatlar-Tushunchasi-Strukturaviy-Xususiyatlari-Va-Ularning-Turlari>
6. Madaniyat va ma'naviyat muammolari.-T.; «Meros», 1994.